


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**AILISHER NAVOIY NOMIDAGI**  
**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**



Sh. Sirojiddinov

2018\_\_ yil

“28” 08



2018\_\_ yil “12” 12

Ro'yxatga olindi: № BD-5111200-4.03

№ BD-5120100 -4.04

2018\_\_ yil “21” 11

**LEKSIKOGRAFIYA ASOSLARI**  
**FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
	110000 – Pedagogika
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
	5111200 – O'zbek tili va adabiyoti
Ta'lim yo'nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

TOSHKENT – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "12" dagi 100-sonli buyrug'ining 4- ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "21" dagi 5-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Sobirov A. – ToshDO'TAU professori, f.f.d.

Abdushukurov B. – ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti dekani

**Taqrizchilar:**

Muhamedova S. – ToshDO'TAU professori, f.f.d.

Omonov Q. – TDSHI Sharq filologiyasi fakulteti dekani, f.f.d.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil "21" dagi 1-sonli bayonnomasi)

**I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

"Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmon, "Davlat tili to'g'risida"gi va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda, "Leksikografiya asoslari" fanining predmeti, maqsadini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, talabalarga o'zbek lug'atchiligi tarixi eski turkiy til, eski o'zbek tili va arab lug'atchiligi tarixi bilan bog'liq ekanligi, lug'at tuzish prinsiplari, lug'at turlari, lug'at maqolalarining, ya'ni leksemalar, frazemalar, maqol-matallar va turli nomlarning joylashtirilish tartibi xususida bilim va ko'nikmalar hosil qilish, ensiklopedik, lingvistik, ikki tilli va ko'p tilli, terminologik, frazeologik, toponimik, orfografik, antroponimik, etimologik, chappa, izohli, tarixiy lug'atlar, leksikografik tadqiqotlar borasida ma'lumot berish muhim vazifalardan sanaladi.

**II. Fanning maqsad va vazifalari**

"Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmondagi "O'zbek tilining asl tabiati va xususiyatlarini to'la aks ettiradigan mukammal akademik va o'quv grammatikalarini yaratish, uning tovushlar tizimi va ularning yozuvda aks etishi, joriy imlo qoidalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar tayyorlash, turli mavzu va yo'nalishlar bo'yicha lug'at va qomuslar, risola va darsliklar yaratish" to'g'risidagi fikrdan kelib chiqqan holda fanni o'qitishning maqsadi leksikografiya sohasining predmeti, maqsadi va vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, o'zbek leksikografiyasining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, o'zbek lug'atchiligining eski turkiy til, eski o'zbek tili, XIX asr ikkinchi yarmi- XX asr 30-yillaridagi, XX asr 40-50-yillaridagi, mustaqillik yillaridagi davri, o'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo'lgan ijtimoiy shart-sharoit va omillar, bu jarayonda boshqa tillarning tutgan o'rni haqida ma'lumot berishdan iborat.

Fanni o'qitishda "Leksikografiya asoslari" fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, talabalarda o'zbek lug'atchiligi bo'yicha boshlang'ich bilim ko'nikmalarini hosil qilish, etimologik, qiyosiy va chog'ishtirma lug'atlar yaratish, zarur termin va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, ensiklopedik va lingvistik lug'atlarning farqli jihatlari, maxsus lug'atlar, lug'at maqolalari sxemasi, o'zbek lug'atchiligining tarixiy ildizlari, uning eski turkiy til va eski o'zbek tili davridagi holati, istiqlol yillaridagi rivoji haqida bilim berish vazifalarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. "Leksikografiya asoslari" fanining vujudga kelishi, obyekti, predmeti.

O'zbek leksikografiyasi oldida turgan muammolar. Hozirgi o'zbek lug'atshunosligidagi asosiy sathlar, Jahon tilshunosligida muayyan tilshunoslik taraqqiyotining unda nashr qilinayotgan manba sifati va miqdori bilan belgilanayotgani. Lug'at tuzish tamoyillari. Lug'at maqolalarining joylashtirilish tartibi. Lug'at maqolalari sxemalari. Lug'at turlari. Ensiklopedik, lingvistik, bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli, terminologik, frazeologik, toponimik, orfografik, antroponimik, etimologik, chappa, izohli, tarixiy lug'atlar, omonimlar, antonimlar, sinonimlar, internatsional so'zlar lug'ati. O'zbek lug'atchiligining eski turkiy til leksikasi negizida shakllangani. O'zbek lug'atchiligining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar. O'zbek lug'atchiligining eski turkiy til va arab leksikografiyasi tarixi bilan bog'liq ekanligi,

2-mavzu. XI-XII asr o'zbek lug'atchiligi.

"Devonu lug'otit turk"ning arab lug'atchiligi an'alariga muvofiq tuzilganligi va unda so'zlarning berilish tartibi, fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarining yoritilishi, asosan, turkiy til, jumladan, o'zbek tiliga xos so'zlarning qayd etilganligi. "Muqaddimatul - adab" asarining o'zbek lug'atchiligida tutgan o'mi hamda unda arab, fors, mo'g'ul tillariga oid so'zlarning qo'llanishi.

3-mavzu. XII-XIV asr o'zbek lug'atchiligi.

"At tuhfatus zakiyatu fil lug'atit turkiya" (XIV), "Tarjumon", (XIV) "Kitob bulg'otul mushtaqori lug'atit turk val qifchoq" (XIV), "Kitob ul-idrok li Lison il-atrok" (XIV) asarlarining o'ziga xos xususiyatlari, lug'atda turkiy tillar leksikasi va grammatikasiga doir ma'lumotlarning aks etishi.

4-mavzu. O'zbek lug'atchiligining eski o'zbek tili davri.

Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar. "Bado'ul-lug'at" (XVI), "Abushqa" (XVI), "Lug'ati turki" (XVII), "Kelurnoma" (XVII), "Sanglox" (XVIII), "Lug'ati chig'atoy va turkiy usmoniy" (XIX) kabi o'zbekcha-forscha, o'zbekcha-turkcha lug'atlarda so'zlarning joylashish tartibi va tamoyillari. Ularda xalq xo'jaligining turli sohalariga mansub so'z va terminlarning ifodalanishi.

5-mavzu. XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr o'rtalarida o'zbek lug'atchiligi.

"Ruscha-sartcha" va "Sartcha-ruscha" lug'atlarning yaratilish sabablari. Bir va ikki tilli, terminologik, orfografik, izohli, frazeologik, chappa, filologik lug'atlarning yaratilishi. "Ruscha-o'zbekcha paxtachilik terminlari so'zligi" (1933), "Zoologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati" (1938), "O'zbekcha-ruscha lug'at" (1941).

6-mavzu. Mustaqillik davri o'zbek lug'atchiligi.

Istiqlol davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy hayotda yuz bergan tub o'zgarishlarning o'zbek leksikografiyasiga ta'siri. Etimologik, ensiklopedik, imlo, izohli lug'atlar yaratilishi. Izohli lug'atlarda davr talablarining aks etishi muammolari. Elektron lug'atlar va ularni yaratish asoslari. Internet lug'atlari. Vikipediya. Til korpusi. Milliy va global korpuslar. O'quv lug'atchiligi. Jahon o'quv lug'atchiligi tarixi va hozirgi holati. O'zbek o'quv lug'atchiligi. O'quv lug'atlarini tuzish tamoyillari. O'quv lug'atlarining elektron va internet versiyalari.

### Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar o'zbek leksikografiyasining shakllanish va taraqqiy etish bosqichlari, omillari, struktur-grammatik qurilishi, qatlamlari, ularda maqolalarning berilish tartibi hamda tamoyillarini o'rganadi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy tahlil orqali yana ham boyitadilar. Shuningdek, darslik va qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop qildirish orqali bilimni oshirish, ilmiy-texnikaviy matn ustida ishlash, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash, test savollari tuzish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbek lug'atchiligining shakllanish bosqichlari.
2. Umumiy va xususiy lug'atlarning farqi.
3. Bir, ikki va ko'p tilli lug'atlar.
4. "Devonu lug'otit turk"ning tuzilishi.
5. "At tuhfatus zakiyatu fil lug'atit turkiya" asarining o'ziga xos xususiyatlari.
6. "Bado'ul-lug'at"da so'zlarning joylashtirilish tartibi.
7. "Ruscha-sartcha" va "Sartcha-ruscha" lug'atlar.
8. XX asr 30-yillarida o'zbek lug'atchiligi.
9. XX asr 40-yillarida o'zbek lug'atchiligi.
10. XX asr 50-yillarida o'zbek lug'atchiligi.

**Izoh:** Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan amaliy mashg'ulotlar uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

### Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar lug'atchilik ona tilining butun taraqqiyoti davomida shakllangan hodisa ekanligi, uning paydo bo'lish davri va

kelib chiqish manbasining har xilligi, o'zbek tili terminologik tizimining o'z grammatik strukturasi ega ekanligi, ayni chog'da o'zbek va boshqa xalqlar o'rtasidagi bevosita va bilvosita iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, diniy, madaniy munosabatlar bu xalqlar tillariga ham o'z ta'sirini o'tkazgani, oqibatda muayyan tilga xos leksik-semantik elementlarning ikkinchi bir tilga o'tib, o'zlashib ketish jarayonining voqelanishi haqida ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Lug'at tuzish va so'zlarni joylashtirish tamoyillari
2. "Muqaddamatul - adab" asarida arab, fors, mo'g'ul tillariga oid so'zlarning qo'llanishi.
3. "Tarjumon" asarida turkiy tillar leksikasi va grammatikasiga doir ma'lumotlarning aks etishi.
4. "Kelurnoma" ideografik lug'atning ilk namunasi sifatida.
5. Terminologik va ensiklopedik lug'atlar.
6. Frazologik, toponimik, orfografik lug'atlar.
7. Tarixiy lug'atlar.
9. Omonimlar, antonimlar, sinonimlar, internatsional so'zlar lug'ati.
10. Etimologik va izohli lug'atlar.

**Izoh:** Mazkur ro'yxatdagi mavzulardan seminar mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda tanlab foydalanish, mavzuga doir adabiyotlarning mavjudligiga e'tibor berish tavsiya etiladi.

#### Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

"Leksikografiya asoslari" fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va leksikografiyaning nazariy masalalarini tahlil qilishda muayyan ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra professor-o'qituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda internet saytlaridan foydalanib, referatlar, ilmiy ma'ruzalar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar hozirlaydilar.

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzular ustida ishlash;
- o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish metodlaridan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1. "Kitob bulg'otul mushtaqori lug'atit turk val qifchoq" asarining o'ziga xos xususiyatlari,
2. "Kitob ul-idrok li Lison il-atrok"da turkiy tillar leksikasiga doir ma'lumotlarning ifodalanishi.
3. "Kelurnoma" lug'ati.
4. "Sangloh" lug'ati.
5. "Lug'ati chig'atoy va turki usmoniy"da so'zlarning joylashish tartibi va tamoyillari.
6. Istiqloq davrida tuzilgan lug'atlar.

**Izoh:** Ishchi dasturni shakllantirish jarayonida mustaqil ta'lim soatlari hajmiga asoslanish, mavzulardan tanlab foydalanish, mustaqil ishni bajarish jarayonida belgilangan ko'rsatmalarga amal qilish tavsiya etiladi.

#### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

##### Asosiy adabiyotlar

1. Umarov E. Eski o'zbek lug'atlari. - Toshkent, 1994.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomli: I-t (Moskva: "Rus tili", 1981. - 631 b.), 2-t (Moskva: "Rus tili", 1981. -715 b.).
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomlik. I t. (T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-y. -680-b.), II t. (2006-y. -672 b.), III t. (2006-y. -688 b.), IV t. (2008-y. -608 b.), V t. (2008-y. - 592 b.).

##### Qo'shimcha adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" тўғрисидаги Фармони // Халқ сўзи. 2017 йил 8 февраль.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора – тадбирлари” тўғрисида // Халқ сўзи 2017 йил 21 апрель.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. I-IV. - Toshkent: Fan, 1983-1985.
6. Bektemirov N., Begmatov E. Mustaqillik davri atamallari. - Toshkent, 2002.
  7. Dadaboyev N. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. - Toshkent, 2007.
  8. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. I-III. Toshkent, 1960-1963.
  9. Choriyev Z. Tarix atamallarining izohli lug'ati. -Toshkent: Sharq, 1999.
10. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -Toshkent: Fan, 2002.

#### Internet saytlari

32. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
33. [www.genhis.philol.ru](http://www.genhis.philol.ru)
34. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz)
35. [www.lingvo-online.ru](http://www.lingvo-online.ru)